

## SOVET DAVRIDA O‘ZBEKISTONDA TA’LIM TIZIMINING SHAKLLANISHI

*Sobirov Firdavs Anvar o‘g‘li*

**Annotatsiya :** Ushbu maqolada 1917–1991-yillar oralig‘ida O‘zbekistonda ta’lim tizimining shakllanish jarayoni tahlil qilingan. Maqolada sovet hokimiyatining dastlabki yillarida savodsizlikni tugatish kampaniyasi (“likbez”), yangi maktablar va oliy o‘quv yurtlarining tashkil etilishi, ta’limning ideologik yo‘nalishi hamda milliy kadrlar tayyorlash siyosati yoritiladi. Shuningdek, 1950–1980-yillarda O‘zbekiston SSRda ta’lim tizimining modernizatsiya bosqichlari ham faktlar asosida tahlil etiladi. Tadqiqot arxiv hujjatlari, davriy matbuot va rasmiy statistik ma’lumotlarga asoslangan.

**Annotation:** This article analyzes the formation of the education system in Uzbekistan during the Soviet period (1917–1991). It examines the literacy campaign (“Likbez”), the establishment of new schools and higher education institutions, the ideological orientation of education, and the policy of training national specialists. The modernization stages of the educational system in the 1950s–1980s are also studied based on archival documents, periodicals, and official statistics.

**Аннотация:** В данной статье анализируется процесс формирования системы образования в Узбекистане в советский период (1917–1991 гг.). Рассматриваются кампания по ликвидации неграмотности («ликбез»), создание новых школ и вузов, идеологическая направленность образования и политика подготовки национальных кадров. Также исследуются этапы модернизации системы образования в 1950–1980-е годы на основе архивных документов, периодической печати и официальной статистики.

**Kalit so‘zlar:** Sovet davri, O‘zbekiston SSR, ta’lim tizimi, savodsizlikni tugatish, milliy kadrlar, sovet mafkurasi.

**Keywords:** Soviet period, Uzbek SSR, education system, literacy campaign, national cadres, Soviet ideology.

**Ключевые слова:** советский период, Узбекская ССР, система образования, ликбез, национальные кадры, советская идеология.

XX asr boshlarida O‘zbekiston hududida ta’lim tizimi asosan diniy–an’anaviy maktablar — maktab va madrasalar shaklida faoliyat yuritgan bo‘lsa, 1917-yildan so‘ng Sovet hokimiyatining o‘rnatilishi bilan bu tizim tubdan o‘zgardi. Bolsheviklar yangi jamiyat qurish yo‘lida ta’limni “sotsialistik ong”ni shakllantirish vositasi deb bilgan holda 1920-yillarda O‘zbekistonda keng ko‘lamli savodsizlikni tugatish kampaniyasini boshladi. Bu holat jamiyat hayotiga ta’sir etmay qolmadi. 1923-yilgi

statistik ma'lumotlarga ko'ra, Respublika aholining 90 foizi savodsiz edi<sup>1</sup>. Aholiga dastlab sovet g'oyalarini mustahkam tatbiq etish uchun ham ularning savodini chiqarish muhim edi.

1917-yilgi Turkiston o'lkasidagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, aholining atigi 2–3 foizi o'qish va yozishni bilar edi. 1920-yillarga kelib, bu ko'rsatkich O'zbekiston hududida ham o'xshash holatda edi: 1924-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, aholining 89,7 foizi savodsiz bo'lgan. 1920-yil 26-dekabrda Turkiston Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo'mitasi "Savodsizlikka qarshi kurash to'g'risida" qaror qabul qildi. Shu asosda "Likbez" (likvidatsiya bezgramotnosti) komissiyalari tuzildi. 1923-yilda esa bu ish respublika miqyosida keng kampaniyaga aylandi. Maxsus "O'qish uylari", kechki va yakshanba maktablari tashkil etildi. 1924-yilda 700 dan ortiq likbez markazlari faoliyat yuritgan bo'lib, ular orqali 100 mingdan ortiq fuqarolar o'qish-yozishni o'rganishgan<sup>2</sup>.

Bu jarayonda "Yangi alifbo" harakati muhim o'rin tutdi. 1929-yilda arab yozuvidan lotin yozuviga o'tish haqidagi qaror qabul qilindi. Bu o'zgarish ta'lim tizimini soddalashtirdi, o'quv jarayonini yengillashtirdi va savodxonlik darajasining oshishiga xizmat qildi. Masalan, 1939-yilgi sovet aholini ro'yxatga olish natijalariga ko'ra, O'zbekiston SSR aholisi orasida savodxonlar ulushi 82,6 foizga yetgan<sup>3</sup>. Savodsizlikni tugatish siyosati ayniqsa ayollar o'rtasida alohida ahamiyat kasb etdi. Chunki 1920-yillarda o'zbek ayollari orasida savodxonlik darajasi 1 foizdan ham kam edi. 1926-yildan boshlab "Ayollar klub va qiroatxonalari" ochildi, ularda 1935-yilgacha bo'lgan davrda 300 mingdan ortiq ayollar savod chiqargan ("Sovet maktabi" jurnali, 1936). Shuningdek, 1930-yilda Sovet Ittifoqida "Majburiy boshlang'ich ta'lim to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, O'zbekiston SSRda ham 7 yillik bepul ta'lim tizimi joriy etildi. 1932-yilga kelib respublikada 8000 dan ortiq umumta'lim maktablari faoliyat yuritgan, o'quvchilar soni esa 1,2 milliondan oshgan. Mazkur kampaniya faqat savod o'rgatish bilan cheklanmagan — u orqali siyosiy va mafkuraviy tarbiya ham amalga oshirilgan. Likbez markazlarida o'qitiladigan matnlar sovet mafkurasi asosida tuzilgan bo'lib, ularning asosiy maqsadi "yangi, sotsialistik ongdagi insonni tarbiyalash" edi. Shu sababli ta'lim jarayonida o'qish bilan birga siyosiy darslar, partiya qarorlarini o'rganish, "xalq dushmanlari"ga qarshi mafkuraviy targ'ibot ham olib borilgan. Umuman olganda, 1920–1940-yillar davrida O'zbekistonda savodsizlikning deyarli to'liq tugatilgani tarixiy fakt sifatida qayd etilgan. 1940-yilga kelib, 9 yoshdan 49 yoshgacha bo'lgan aholining 95 foizi o'qish va yozishni bilgan.

Sovet davrida O'zbekiston SSRdagi ta'lim tizimi nafaqat bilim berish, balki siyosiy–mafkuraviy tarbiya berish vositasi sifatida shakllantirildi. Sovet hokimiyati ta'limni "kommunistik ong" va "sotsialistik dunyoqarash"ni shakllantirish uchun

<sup>1</sup> SSSR Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari, 1940.

<sup>2</sup> O'zbekiston Milliy Arxivi, f.837, r.3, ish.245.

<sup>3</sup> SSSR Davlat statistika qo'mitasi, 1940.

asosiy g‘oyaviy maydon deb bildi. Shu sababli maktab, texnikum, oliy o‘quv yurtlari va hatto maktabgacha ta‘lim muassasalari faoliyati qat‘iy mafkuraviy nazorat ostida bo‘lgan. 1920-yillarning oxiriga kelib, ta‘lim tizimida partiyaviylik tamoyili (“partynost”) to‘liq joriy etildi. 1931-yilda VKP(b) Markaziy Qo‘mitasi tomonidan qabul qilingan “Maktabni sotsialistik qayta qurish to‘g‘risida”gi qarorda: “Ta‘lim tizimi partiya siyosatini targ‘ib etuvchi, kommunistik dunyoqarashni shakllantiruvchi asosiy vosita bo‘lishi lozim”, — deb belgilangan edi. Maktab va oliy o‘quv yurtlarida darsliklar Moskvada tasdiqlangan yagona dastur asosida olib borildi. Darslar mazmuni “Lenin asarlari”, “Kommunistik partiya tarixi”, “Marksizm-leninizm asoslari” kabi mavzularga yo‘naltirildi. O‘zbekiston SSR Xalq Maorifi komissarligi tomonidan 1935-yilda tasdiqlangan o‘quv dasturlarida barcha fanlarga “kommunistik g‘oya singdirish” talabi qo‘yilgan edi. O‘quv jarayonida tarix fanining o‘zi ham mafkuraviy vositaga aylantirildi. Masalan, o‘zbek xalqi tarixidagi siyosiy mustaqillik harakatlari (“bosmachilik”, jadidchilik) “xalq dushmanligi” sifatida talqin qilinardi, sovet hokimiyati esa “xalqni ozod qilgan kuch” sifatida ko‘rsatilgan.

O‘zbek tili va adabiyoti fanlari orqali ham sotsialistik qadriyatlar singdirildi. 1930–1950-yillar o‘quv darsliklarida Cho‘lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy kabi mustaqil fikrli yozuvchilar nomi tilga olinmagan, aksincha, sovet mafkurasiga sodiq yozuvchilar – G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Oybek ijodi keng targ‘ib etilgan. Bu holat o‘quvchilarda “sovet fuqarosi” idealini shakllantirishga xizmat qilgan. Har bir ta‘lim muassasasida partiya qo‘mitalari, komsomol va kasaba uyushmalari faoliyat yuritgan. Ular o‘quvchilarning faqat bilim darajasini emas, balki siyosiy qarashlarini ham nazorat qilgan. 1947-yilgi Toshkent davlat universiteti hisobotida 90 foizdan ortiq talabalar komsomol a‘zosi bo‘lgani qayd etilgan<sup>4</sup>. O‘qituvchilar tarkibida esa “siyosiy sadoqat” birinchi mezon bo‘lgan. 1937–1938-yillardagi “katta tozalash” davrida ko‘plab o‘qituvchilar “xalq dushmani” tamg‘asi bilan ishdan bo‘shatilgan. Shu sababli pedagogik kadrlar orasida siyosiy muhit xavotirli bo‘lgan, ammo bu tizim mafkuraviy intizomni yanada mustahkamlagan. Sovet mafkurasi ta‘lim orqali jamiyatda sotsialistik qadriyatlar – kollektivizm, mehnatsevarlik, davlatga sadoqat tushunchalarini keng yoydi. Shu bilan birga, ta‘lim tizimining mafkuraviy yo‘naltirilganligi natijasida mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish qobiliyati cheklangan.

Shunga qaramay, sovet ta‘lim tizimi o‘z davrida keng qamrovli savodxonlikni, ilmiy tafakkur unsurlarini va texnik fanlarning rivojlanishini ta‘minlagan. 1960–1980-yillar davomida o‘zbek olimlari orasida fizika, matematika, pedagogika yo‘nalishlarida yirik ilmiy maktablar shakllandi — bu sovet ta‘limining ijobiy jihatlaridan biri edi. Ta‘lim tizimining ideologik yo‘nalishi sovet davrining eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, u jamiyatning mafkuraviy birligini ta‘minlashga qaratilgan edi. Bu tizimning natijasida O‘zbekiston SSRda yuqori savodli, ammo mafkuraviy jihatdan bir

<sup>4</sup> O‘zbekiston Milliy Arxivi, F.245, r.1, ish.58.

yoqlama fikrlovchi avlod shakllandi. Mustaqillik yillarida ta'lim islohotlarining asosiy maqsadi aynan shu biryoqlama mafkuraviylikdan voz kechish va erkin, mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashga qaratildi.

1950–1980-yillar O'zbekiston SSRda oliy ta'limning rivojlanish davri bo'ldi. 1956-yilda Toshkent davlat texnika instituti, 1960-yillarda Andijon, Buxoro, Samarqand, Farg'ona va Nukusda yangi oliy o'quv yurtlari ochildi. 1970-yillarda respublikada 40 dan ortiq oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritgan. 1980-yilga kelib ularning soni 50 dan oshgan, talabalarning umumiy soni esa 400 mingdan ortgan. Shu bilan birga, o'qituvchilar soni ham ko'paydi: 1924-yilda atigi 2500 o'qituvchi bo'lgan bo'lsa, 1980-yilda bu ko'rsatkich 120 mingdan oshdi. Bu faktlar O'zbekiston SSRda ta'lim tizimining kengayib borayotganini yaqqol ko'rsatadi. Sovet hukumati dastlab rahbarlik lavozimlariga markazdan yuborilgan rus mutaxassislarini tayinladi. Ammo 1940–1960-yillardan boshlab “milliy kadrlarni tayyorlash siyosati” yo'lga qo'yildi<sup>5</sup>. Bu jarayon natijasida o'zbek olimlari, o'qituvchilari, ilmiy kadrlar soni keskin oshdi. 1970-yillarga kelib O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi tarkibida 100 dan ortiq fan doktori faoliyat yuritgan.

Sovet davrida O'zbekistonda ta'lim tizimi keskin o'zgarishlarga uchradi. An'anaviy diniy ta'lim o'rnini dunyoviy, markazlashgan va ideologik yo'nalishdagi ta'lim tizimi egalladi. Savodsizlikning tugatilishi, oliy o'quv yurtlarining ko'payishi va milliy kadrlar tayyorlash siyosati O'zbekistonning madaniy va ijtimoiy taraqqiyotida muhim rol o'ynadi. Shu bilan birga, ta'lim tizimining haddan tashqari mafkuraviylashtirilganligi mustaqillikdan keyingi davr islohotlarini zaruratga aylantirdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Milliy Arxivi, fond 837, ro'yxat 3, ish 245.
2. “O'zbekiston SSR tarixi” (Toshkent: Fan, 1983).
3. “Sovet maktabi” jurnali, 1930–1980-yillar sonlari.
4. SSSR Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari, 1940.
5. Karimov I. O'zbekiston mustaqillikka erishish arafasida. – Toshkent, 1996.
6. UNESCO, Education Development in the Soviet Republics, 1989.

<sup>5</sup> O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi hisobotlari, 1970-yil.